

Date: 19th February-2025

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI XO'JAYLI TUMANIDA
QO'YLARNING ICHAK SESTODOZLARINING TARQALISHI VA
PROFILAKTIKASI**

Esimbetov Adilbay Tlepoovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. Professor.

Avezimbetov Shavkat

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, dotsent.

Bauaddinov Kamaladdin Karamaddinovich

Magistrant.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida 2024-2025-yillarda qo'ylarning ichak sestodozlari bilan zararlanish darajasi, kasallikning epizootologik xususiyatlari va profilaktikasi muhokama qilinadi. Tadqiqot davomida qo'ylarning yoshiga ko'ra moniezioz bilan zararlanishi, uning intensivligi va ekstensivligi tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy diagnostika usullari va samarali profilaktik choralar tavsiya qilinadi. Olingan natijalar veterinariya amaliyotiga tadbiq etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Qo'ylar, ichak sestodozlari, moniezioz, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumani, epizootologiya, parazitologiya, veterinariya, diagnostika, profilaktika.

Kirish: Qo'ylarning ichak sestodozlarining qo'zg'atuvchilari yassi chuvalchanglar – *Plathelminthes* turkumiga kiradi. Ushbu parazitlar *Cestoda* sinfiga va *Cyclophyllidea* turkumiga mansub bo'lib, *Moniezia* avlodi qo'ylar orasida eng keng tarqalgan tur sifatida qayd etiladi.

2024-2025-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, qo'ylarning yoshiga bog'liq holda moniezioz bilan zararlanish darajasi tahlil qilindi. Ushbu kasallik chorvachilik xo'jaliklarida katta iqtisodiy yo'qotishlarga sabab bo'lishi bilan birga, hayvonlarning o'sish va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Material va usullar: Tadqiqot davomida Xo'jayli tumani xo'jaliklarida parazitologik tekshiruvlar olib borildi. Moniezioz qo'zg'atuvchilarining tarqalishi, invaziya ekstensivligi va intensivligi laboratoriya sharoitida morfologik va mikroskopik usullar yordamida aniqlandi. Hayvonlarning ichaklarida parazitlarning mavjudligi gelmintoskopiya va gelmintoovoskopiya usullari orqali tekshirildi.

Qo'ylarning ichak sestodozlarining qo'zg'atuvchilari yassi chuvalchanglar – *Plathelminthes Schneider*. 1873 tipining *Cestoda Rudolphi*, 1808 sinfiga, ushbu sinfning esa *Cyclophyllidea Beneden in Braun*, 1900 turkumiga kiradi. Bu turkum turlar soni jihatidan eng yirik turkum bo'lib, u bir necha kenja turkumlarni o'z ichiga oladi. Ularga

Date: 19th February-2025

Anoplocephalata Skrjabin, 1933, Hymenolepidata Skrjabin, 1940, Mesocestoidata Skrjabin, 1940. Taeniata Skrjabin et Schulz, 1937 kenja turkumlari misol bo'la oladi. Qo'ylarning va boshqa kavshovchi juft tuyogli hayvonlarning barcha voyaga yetgan ichak sestodlari birinchi kenja turkum vakillari bo'lib hisoblanadi, ular chaqiradigan guruh kasalliklari esa Anoplotsefalyatozlar deb yuritiladi. Barcha anoplotsefalyatlar Anoplocephalata kenja turkumining 2 ta oilasiga kiritilgan. Ulardan biri Anoplocephalidae Chlodkowsky, 1902 oilasi bo'lib, unga qo'ylarning ichak sestodlarini o'z ichiga oluvchi Moniezia Blanchard, 1891 avlodi kiradi.

Muallif qo'ylarning yoshiga ko'ra monieziozning o'zgarishini ham o'rgangan. Shunga ko'ra tajriba xo'jaligida bir yoshgacha bo'lgan qo'ylarni 57.8 foiz, ikki yoshgacha bo'lganlarini 41.17 foiz, ona qo'ylarni 33.3 foiz monieziyalar bilan zararlanganligi kuzatilgan. Boshqa bir xo'jalikda qo'zilarni 47.6 foiz, o'tgan yil tug'ilgan yosh qo'zilarni 50.0 foiz, ona qo'ylarni 25 foiz monieziyalar bilan zararlanganligi aniqlangan. Uchinchi xo'jalikda qo'ylar yoshiga ko'ra ushbu raqamlar 56.2; 50.0; 28.5 foizni, to'rtinchı xo'jalikda esa 63.6 ;56; 16.6 foizni tashkil qilgan. Moniezioz qo'zg'atuvchilarining ikki turini uchrashi qayd qilingan. Ular bo'yicha invaziya ekstensivlik va intensivlik qo'ylar yoshiga ko'ra qo'yidagicha: tajriba xo'jaligida M.expansa bilan zararlanish qo'zilarda 21.5, M. benedeni bilan 29.7 foiz, ona qo'ylarda M.expansa topilmagan , M. benedeni bilan zararlanishi 33.3 foizni tashkil qilgan. Ikkinci xo'jalikda qo'zilarni M.expansa bilan zararlanishi 28.6 foizni, yosh qo'ylarda 16.6 foizni, katta yoshdagagi qo'ylarda 25.0 foizni tashkil qilgan. Boshqa bir uchinchi xo'jalikdagi katta yoshdagagi qo'ylar da M.expansa uchramagan, M. benedeni bilan zararlanish 28.5 foizni tashkil qilgan, M.expansa bilan qo'zilarni 56.2 foiz, M. benedeni bilan 25.0 foiz, yosh qo'ylarni esa 42.8 foiz M.expansa bilan , 35.7 foiz M. benedeni bilan invaziyalashganligi qayd qilingan. To'rtinchı xo'jalikda ham katta yoshli qo'ylarda M.expansa uchramagan, M. benedeni 16.6 foiz qo'ylarda topilgan. Qo'zilarni M.expansa bilan zararlanishi 45.4 foizni, M. benedeni bilan 36.3 foizni tashkil qilgan, yosh qo'ylarda M.expansa va M. benedeni lar bilan zararlanish bir xil ko'rsatkichda (36 foiz) bo'lgan .

M.expansaning invaziya intensivlik darajasi har bir xo'jalikda qo'zilarda o'rtacha 1.2- 2.1 nusxani, yosh qo'ylarda 1,0-2,0 nusxani tashkil qilgan bo'lsa, M. benedeni ning invaziya intensivligi o'rtacha qo'zilarda 1,25 nusxadan 2,28 nusxagacha, yosh qo'ylarda 1,2 nusxadan 2,2 nusxagacha, katta yoshdagagi qo'ylarda esa 1,0 nusxadan 2,5 nusxagacha bo'lgan. Shunday qilib Kalmik respublikasi hududida qo'ylarni M.expansa ga nisbatan ko'proq M. benedeni bilan zararlanishi, M.expansa ni esa, asosan qo'zilarda va yosh qo'ylarda uchrashi, M. benedeni bilan barcha yoshdagagi qo'ylarning invaziyalanishi qayd qilingan. Boshqa uch xo'jalikda ham M.expansa faqat qo'zilar va yosh qo'ylarda topilgan, M. benedeni ni esa barcha yoshdagagi qo'ylarda parazitlik qilishi aniqlangan.

M.V. Arisovning tadqiqotlariga ko'ra birinchi marta aprel oxirida, may oyining boshida yaylovga chiqarilgan qo'zilarda ikkala tur moneziyalar bilan kuchli zaralanish iyun-iyul oylarida kuzatilgan. M.expansa bilan invaziyalanish sentyabr oyining oxirida pasayadi.

Date: 19th February-2025

Tadqiqotlar kasallikdan o'lgan yoki majburiy hamda go'sht mahsuloti olish uchun so'yilgan qo'ylarning ingichka bo'lim ichaklarida joylarda yoki "veterinariya meditsinasiga va farmakologiyasi" kafedrasining ilmiy – tadqiqot laboratoriyasida akademik K.I.Skryabinning ichki organlarining alohida to'liq gelmintologik yorish usulida tekshirildi. Ichakda topilgan barcha sestodlar toza suvda yuvib olinib, maxsus shisha idishlarga solindi. Har bir sestodning skoleksi, bo'yinchasi va strobilasidagi bo'g'imlarning shakli, hajmi, yetilgan bo'g'imlardagi tuxumlari yoki pillalari alohida makroskopik va mikroskopik usullar yordamida o'rghanildi. Ularning turlari aniqlangach 70 foizli spirtda yoki 3.0 foizli Barbagallo suyuqligida saqlandi.

Ushbu usuldan tashqari tadqiqotlarning talaygina qismi gelmintoskopiya va gelmintoovoskopiya usullarida olib borildi. Gelmintoskopiya usuli yordamida sestodlar bilan zararlangan qo'ylarning tezagi orqali ajralib tushgan parazitlarning 1-2 tadan bo'g'lnlari yoki bir necha bo'g'lnlardan tashkil topgan tana qismlari o'rghanildi. Uning uchun bo'g'imlarning hajmi (bo'yi va eni) aniqlangach, ular buyum shishachasiga o'tkazildi, 1 tomchi suv tomizilib ikkinchi buyum shishachasi bilan qoplandi. Har ikkala buyum shishachalari qo'l barmoqlari yordamida bir-biriga qisildi, uning natijasida sestod bo'g'ini ezildi, undan esa tuxumlar yoki pillalar ajralib chiqdi. Mikroskop ostida ularning shakli, hajmi, soni, yetilgan yoki yetilmaganligi mikroskopning 7yoki 10 okulyari va 8 ob'ektivi ostida o'rghanildi. Ularga ko'ra sestod turlari aniqlandi.

Boshqa bir 5 oylik qo'zida topilgan strobilasi 120 sm uzunlikdagi sestod o'sish darajasi bilan yuqoridagi uzunligi 110 sm ga teng bo'lgan sestodga juda yaqin turadi, ammo unda bo'yincha qisqa, bo'g'imlanish tez boshlanadi, bo'g'implar bo'yiga qisqa (100-120 sm masofadagilarining bo'yi 1,2-1,3 mm), ularda bo'g'lnlar bir tekis eniga va bo'yiga o'saboshlagan. Masalan 30 sm lik strobilada bo'g'lnlar eni 7 mm ga, bo'yi 0,9 mm ga, 50 sm uzoqlikdagi bo'g'implar eni 10 mm, bo'yi 1 mm, 80 sm strobilaning bo'g'lnlari eni 12 mm, bo'yi 1,2 mm, 100 sm dagi bo'g'lnlar eni 14 mm, bo'yi 1,2 mm, undan keyingi bo'g'lnlar eni 14 mm dan oshmaydi, bo'yiga biroz o'sadi. Ulardan *M.expanza* nikiga o'xshash uchburchak shakldagi noksimon apparatli tuxumlar yetilgan Strobilasi 1 m 20 sm va undan uzunroq strobilali *M.expanza* da parazitning bunchalik tez yetilishini kuzatmadik. Shunga ko'ra so'nggi 2 tur sestodlarni ham *Moniezia* avlodining boshqa turlari deb hisoblash mumkin.


Date: 19th February-2025



Strobilasi
70 sm ga teng
yetilgan *Moniezia* sp.



Strobilasi
110 sm ga teng
yetilgan *Moniezia* sp.




Strobilasi 120 sm ga teng
bo‘lgan *Moniezia* species ning
Moniezia sp. yetilgan bo‘g‘indagi tuxumlari

Moniezia avlodiga kiruvchi 4-nchi sestod (8 oylik qo‘zi) ning strobilasi 195 sm ga teng, skoleksi o‘rta hajmda, bo‘yinchasi qisqa, shunga ko‘ra *M.expanza* va *M.benedeni* singari bo‘g‘imlanish tezda boshlanadi. Ammo ularga nisbatan tez o‘saboshlaydi, o‘rta bo‘g‘inlar enli, keyinchalik ular eniga qisqara boshlaydi, bo‘yiga esa o‘sadi. So‘nggi birnecha bo‘g‘inlar *avitellina* (*A.centripunctata*)ning yetilgan so‘nggi bo‘g‘imlariga o‘xshab, zanjir tusini oladi ammo ular buyum shishachasida ezib, mikroskopdi ko‘rilganda, ularning bachadonida pillalar emas, balki tuxumlar topildi. Shu xususiyatlariga ko‘ra ushbu sestodni ham *Moniezia* avlodining boshqa bir turi deb hisoblash mumkin. Strobilasi 95 sm ga teng bo‘lgan boshqa bir sestod ham aynan bo‘g‘imlanishini tez boshlanishi, o‘rta bo‘g‘inlarni tezda enli (6-7 mm) bo‘lishi, so‘ngra ularning eniga qisqaraboshlashi va 90-95 sm da atigi enini 4 mm ni tashkil qilishi bilan ushbu sestodga o‘xshaydi va ularning har ikkalasini *Moniezia* avlodining yangi turi ekanligini ko‘rsatdi.

Yuqorida bayon qilingan ilmiy ma’lumotlar qo‘ylar monieziozining qo‘zg‘atuvchilarini tur tarkibini yanada chuqurroq o‘rganishni, aniqlangan yangi turlarni morfologik, biologik jihatlarini, chaqiradigan kasalliklarining epizootologik xususiyatlarini fan va veterinariya amaliyoti uchun yoritib berishni taqozo etadi.

Date: 19th February-2025



Strobilasi 1 m 95 sm boshqa monieziyalardan va avitellinadan keskin farq qiluvchi
Moniezia sp.

Natijalar. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumanida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, qo'ylarning ichak sestodozlari bilan zararlanishi yosh guruhlariga va mavsumiy o'zgarishlarga bog'liq holda turlicha bo'ladi. Bir yoshgacha bo'lgan qo'zilarda invaziya ekstensivligi va intensivligi yuqori bo'lib, M. expansa va M. benedeni parazitlari eng ko'p uchraydi. Katta yoshdagi qo'ylarda zararlanish darajasi pasayadi, ammo M. benedeni barcha yosh guruhlarida uchrashi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ichak sestodozlarining tarqalishi iqlim sharoitlari, yaylovlarning holati va mavsumiy omillar bilan chambarchas bog'liq.

Muhokama. Tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy manbalardagi ma'lumotlar bilan qiyoslanganda, ichak sestodozlari tarqalishidagi ayrim tafovutlar kuzatildi. Xususan, M. expansa qo'zilarda yil bo'yи uchrashi va bahor hamda kuz oylarida yuqori darajaga yetishi aniqlangan bo'lsa, M. benedeni ning barcha yosh guruhlarida mavjudligi qayd etildi. Ushbu natijalar ichak parazitlarining epizootologiyasiga oid oldingi tadqiqotlar bilan muvofiq keladi, ammo ayrim xulosalar qayta ko'rib chiqilishini talab qiladi. Shuningdek, oribatid kanalarining ekologik sharoitlarga bog'liq holda parazitlarning tarqalishida muhim omil ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Bu esa veterinariya amaliyotida mavsumiy antiparazitar profilaktika choralarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbekiston hududida O'zVITI tadqiqotchilari tomonidan so'nggi yillarda ichak sestodlari orasida qo'ylarda moniezioz qo'zg'atuvchilaridan *Moniezia Blanchard*, 1891 avlodining faqat ikki turi – *Moniezia expanza* (Rudolphi, 1810) va *Moniezia benedeni* (*Moniez*, 1879) larning parazitlik qilishi ko'rsatib o'tilgan. Bizlarning tadqiqotlarimiz esa ushbu avlodni monieziyalar turiga ancha boy ekanligidan dalolat beradi va ularni har tomonlama chuqr o'rganishni taqoza etadi.

Qo'ylar anoplotsefalyatozlarining epizootologiyasi Samarqand, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida ilk bor R.Xaitov (1953 yil), M.Mardiev (1967) lar tomonidan

Date: 19th February-2025

maxsus o‘rganilgan. Keyinchalik bunday tadqiqotlar, qolaversa Respublika miqyosida Sh.A.Azimov (1974), I.X.Irgashov (1975), G.S.Pulatov, A.A.Utepov (1976) lar tomonidan davom ettirilgan. Qolgan tadqiqotlar gelmintofaunistik harakterga ega. Ushbu mualliflarning tadqiqotlarining talaygina qismi bo‘yicha qilingan xulosalar anoplotsefalyatozlarning hozirgi epizootologik holatiga unchalik mos emas. Masalan, R.X.Xaitov, M.Mardiev, Sh.A.Azimovlar barcha anoplotsefalyatozlar qo‘zg‘atuvchilarini orasida tarqalishi, invaziya ekstinsivligi va invaziya intensivligi jihatdan tizaniezioz qo‘zg‘atuvchisi- *T.giardii* ni birinchi o‘rinda, moniezioz qo‘zg‘atuvchilaridan *M.benedeni* ni ikkinchi o‘rinda, *M.expansa* ni uchinchi, avitellinoz qo‘zg‘atuvchisini to‘rtinchi o‘rinda turishini aniqlashgan. Bizlar olib borgan tadqiqotlar esa hozirda *M.expansa* ni tarqalishi va son jihatdan birinchi *M.benedeni* ni ikkinchi, avitellinoz qo‘zg‘atuvchisini uchinchi, tizaniezioz qo‘zg‘atuvchisini turtinchi o‘rinda turishini ko‘rsatdi.

R.X.Xaitov, M.Mardiev, Sh.A.Azimovlar, I.X.Irgashovlar qo‘ylarni *M.expansa* bilan qo‘ylar bahor va yozda, *M.benedeni* bilan kuz va qishda ko‘p zararlanadi, yoki qo‘zilar dastlab *M.expansa* bilan keyinchalik *M.benedeni* bilan zararlanadi deb ko‘rsatishgan. Bizlarning tadqiqotlarimiz esa *M.expansa* bilan qo‘zilarni yil bo‘yi zararlanishi mumkinligini, unga ko‘proq bahor va kuzda chalinshini, *M.benedeni* ni ham yil bo‘yi uchrashi mumkinligini, *M.expansa* singari bahor oylaridan uchrashini ko‘rsatdi. Bizlarning tadqiqotlar bo‘yicha olingan bunday natijalar har ikkala tur monieziyalarning biologiyasiga, oraliq xo‘jayinlarining ekalogiyasiga aynan mosdir. O‘z vaqtida ayrim Rassiyalik tadqiqotchilar M.I.Kuznetsov (1955), A.G.Bogdanov (1956) ham qo‘ylarni dastlab *M.expansa* so‘ngra 2,5 oy o‘tgach *M.benedeni* bilan zararlanadi deb monieziozning epizootologiyasi bo‘yicha noto‘g‘ri ta’rif berishgan. Aynan shunday xulosaga S.A.Ulyanov (1961) ham janubiy Qozog‘iston sharoitida olib borgan tadqiqotlari bo‘yicha kelgan .

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Xo‘jayli tumanida qo‘ylarning ichak sestodozlar keng tarqalgan bo‘lib, ularning tarqalishida yosh va mavsumiy omillar katta rol o‘ynaydi. Profilaktika va davolash choralarini rejalshtirilayotganda, aynan bahor va kuz oylarida kasallikning yuqori cho‘qqisiga e’tibor qaratish lozim. Zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanish, anthelmintik dorilarni mavsumiy qo‘llash va ekologik xavfsiz profilaktika choralarini ishlab chiqish zarur. Ushbu tadqiqot natijalari veterinariya amaliyatiga qo‘sghan hissasi bilan ahamiyatlidir va chorvachilik xo‘jaliklarida ichak parazitlari bilan bog‘liq yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Effective Ways of Treatment of Hidden Chronic Endometritis in Cattle in Karakalpakstan. AS Dosumbetovich, SA Kutlymuratovich. Academicia Globe 2 (05), 240-244
2. Dosumbetovich, A. S., Uli, A. D. M., & Abdusalim, A. (2023). QORAQOLPOQSTON SHOROITIDA MAYDA UY HAYVONLARIDA NEMOTODA KASALLIGINING TARQALISHI. *Scientific Impulse*, 1(8), 43-47.

**ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION ON THE BASIS OF
INNOVATIVE TECHNOLOGIES.
International online conference.**

Date: 19th February-2025



3. Avezimbetov, S., Madetova, M., Madetova, N., & Joldasbaeva, V. (2023). VETERINARIYADA GEMOTERAPIYA. ANEMIYALAR VA QON ZARDOBIDA TEMIRNI ANIQLASH, QON RETRAKSIYASINI ANIQLASH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(2), 509-516.
4. Ўзбекистон Республикасида олий таълимни ривожлантиришнинг тратегик мақсадларини амалга оширишда муаммолар ва ечимлар. ЕР Авезимбетов Шавкат, Алламбергенов Даулетбай Образование и наука в XXI веке 3 (31), 93-102.
5. Reypnazarova NE, Murodov XU, Arziyev XY. QUQLAR JUQPALI LARINGOTRAXEIT KESELLIGINIÝ ALDIN ALIW HÁM EMLEW: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14223230>. InInternational scientific and practical conference 2024 Nov 15 (Vol. 1, No. 1, pp. 149-153).
6. Yuldashevich AK, Salomatovich TM, Ogli OD, Kizi AA, Amangeldiyevna MG. THE ROLE OF DEWORMING IN THE HEALTHY CARE OF HORSES. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. 2022 Sep 30;2(09):85-9.
7. Dosumbetovich, A. S., & Komoladdinovich, K. S. (2021). New effective methods of treatment of persistent infertility in cows.
8. Avezimbetov, S. D., Togaymuradov, M. S., & Bazarbaeva, A. A. (2021). Induction of superovulation in cattle. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1778-1781
9. Avezimbetov, S., & Bekmuratov, K. (2021). Methods of microscopic evaluation of sperm obtained from bulls for scientific work and in production. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 403-407.
10. Авезимбетов, Ш. Д. (2020). МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ И ЛАБОРАТОРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СЕКРЕТНОГО ХРОНИЧЕСКОГО ЭНДОМЕТРИТА. Экономика и социум, (12 (79)), 338-341.
11. Erimov Sirijiddin Farhodovich, Djumaboev Abdurasul Baxt ugli, & Son of Mirzabekov Miyirbek O'mirbek ugli. (2023). «QUYON OTODEKTOZI»NING BIOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI, UNING SISTEMATIKADAGI O'RNI, LABORATORIYA DIGINOZI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (6), 132–140. <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/>
12. Farxodovich, E. S. (2023). DIXROSELIOZ QO'ZBARCHI SISTOGONÝASI PROGRESSIYASI BOSHQACHINING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (10), 70-77.
13. Erimov, S. F., Erimov, F. F., & Jumaniyozova, J. M. (2024 yil, noyabr). GASTROFILYOZ-OTLAR (EQUUS FERUS CABALLUS) HAVFLI ENTOMOZ KASALLIGI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222253>. *Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda* (1-jild, 1-son, 95-110-betlar).
14. Shakilov, U. N., Erimov, S. F., & O'ktamov, A. A. (2024, November). ATLAR GASTROFILYOZI QOZĞAWTIWSHILARINA EKOLOGIYALIQ FAKTORLAR

**ENSURING THE INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION ON THE BASIS OF
INNOVATIVE TECHNOLOGIES.
International online conference.**

Date: 19th February-2025



- TÁSIRI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14219999>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 78-84).
15. Erimov, S. F., Erimov, F. F., & Jumaniyozova, J. M. (2024, November). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI ARID IQLIM SHAROITIDA OTLAR GASTROFILYOZI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222297>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 110-116).
16. Shakilov, U. N., Erimov, S. F., & O'ktamov, A. A. (2024, November). GASTROFILYOZ KESELLIGI QOZĞAWTIWSHILARINA ANTIGELMINT DÁRI ÓNIMLERI TÁSIRI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14220032>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 84-88).
17. Farhodovich, E. S. (2024). OTLAR GASTROFILYOZI QO 'ZG'ATUVCHILARIGA EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(5), 186-191.
18. Farhodovich, E. S. (2024). GASTROFILYOZ KASALLIGI QO 'ZG'ATUVCHILARIGA ANTIGELMINT DORI VOSITALARI TA'SIRI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(5), 181-185.
19. Erimov, S. F., Erimov, F. F. va Djumaniyazova, J. M. (2024). GASTROFILOZ OTLARNING XAVFLI ENTOMOSIK KASALLASI (EQUUS FERUS CABALLUS). *DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OVYALARI*, 56 (5), 174-178.
20. Erimov, S., Erimov, F., & Jumaniyozova, J. (2024 yil, noyabr). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURG'OOQ IQLIM SHARTLARIDA OTLARNING GASTEROFILOZI. *TIBBIYOT, FAN VA TA'LIM BO'YICHA XALQARO KONFERENTSIYADA* (1-jild, No10, 63-70-betlar).
21. Erimov, S., Erimov, F., & Jumaniyozova, J. (2024). GASTROFILOZ-OTLAR (EQUUS FERUS CABALLUS)-HAVEN ENTOMOSIS. *Pedagogika fanlari shakllanishining nazariy jihatlari*, 3 (19), 127-133.
22. Farxodovich, E. S., & Arislanbek o'g'li, A. I. (2023). ARALSEEBUCHTDA QO'YLARNING ORIENTOBILGARSİOZI EPIZOOTOLOGIYASI. *Intent Research Scientific Journal*, 2 (10), 106-114.
23. Dauletbaev, N. P., & Tajimuratov, Q. (2024, November). YIRIK SHOXLI MOLLARDA PODODERMATIT KASALLIGINING ETIOPATOGENEZI, TARQALISHI VA UNI DAVOLASH: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222207>. In *International scientific and practical conference* (Vol. 1, No. 1, pp. 102-105).
24. Dauletboev, N. P. (2024). Turli xil tabiiy sharoitlarda karkalarning tug'ruqdan keyingi ontogenet davrida oyoq suyaklari va mushaklarining morfometrik xususiyatlari adabiyotlarni ko'rib chiqish. *Fan va innovatsiyalar*, 3 (Maxsus 47-son), 698-701.